

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/30.12.2019.GM.40.01
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM

RAXMATULLAYEV FARRUX FARHOD O‘G‘LI

**ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN TOG‘-MA‘DAN HUDUDINING QALAY-
NODIR METALLAR MA‘DANLASHUVINING BASHORAT-QIDIRUV
MEZONLARINI ISHLAB CHIQISH**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Raxmatullayev Farrux Farhod o‘g‘li

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘-ma‘dan hududining qalay-nodir metallar
ma‘danlashuvining bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish.....3

Рахматуллаев Фаррух Фарход угли

Разработка прогнозно-поисковых критериев оловянно-редкометалльного
оруденения Зирабулак-Зиаэтдинского рудного района.....21

Rakhmatullayev Farrukh Farhod ugli

Development of prognostic and prospecting criteria for tin-rare metal
mineralization in the Zirabulak-Ziyovuddin ore district.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/30.12.2019.GM.40.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM

RAXMATULLAYEV FARRUX FARHOD O‘G‘LI

**ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN TOG‘-MA‘DAN HUDUDINING QALAY-
NODIR METALLAR MA‘DANLASHUVINING BASHORAT-QIDIRUV
MEZONLARINI ISHLAB CHIQISH**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida sun'iy intellekt, nanomaterialshunoslik, "yashil" iqtisodiyot va boshqa zamonaviy texnologiyalarda nodir metallarga talab ortib borayotganligi sababli ularning konlari va istiqbolli maydonlarini bashoratlash alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarda qalayga bo'lgan yuqori ehtiyoj uning boshqa metallar bilan qorishmalari xavfsiz, korroziyaga chidamli qoplama yoki qotishma sifatida qo'llanilishidir. Shu sababli, qalayning mineral xomashyo bazasini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida nodir metallar konlarini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Qalay konlarining bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish, ularning joylashuv va hosil bo'lish qonuniyatlarini aniqlash hamda statistik metallogenik tahlil qilish yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar yangi konlarni qidirish hamda geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Respublikada nodir metallarning mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida bir qator qalay konlari (Qarnob, Lapas, Semizquduq va b.) aniqlangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "....iqtisodiyot uchun zarur mineral xomashyo bazasini kengaytirish...."¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada yuqori texnologiyalar sohalarida ishlatiladigan foydali qazilmalar mineral xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida, 2018 yil 1 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3578-son, 2021 yil 21 apreldagi "Geologiya sohaga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5083-son va 2022 yil 3 avgustdagi "Mahalliy mineral xomashyo resurslari asosida yuqori texnologik metallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-343-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishtirishning VIII. "Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF – 60-son farmoni.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududining nodir metalli konlari va geologik xossalari ko'plab tadqiqotchilar, shu jumladan: H.M. Abdullayev, X.N. Baymuxamedov, I.H. Hamrabayev, K.L. Babayev, V.N. Ushakov, V.D. Otroshenko, I.A. Usmanov, O.T. Rozikov, A.B. Pavlovskiy, V.A. Talalov, I.M. Yevfimenko, F.Sh. Rajabov, Y.I. Mezenseva, V.M. Yem, T.E. Vidusov, Y.B. Yejkov, I.B. Turamuratov, L.M. Krikunova, R.A. Axundjanov, X.D. Ishbayev, U.D. Mamarozikov, V.D. Soy, M.M. Pirnazarov, M.S. Karabayev, A.X. Turesebekov, L.R. Sadikova, A.A. Raximov, R.X. Mirkamalov, F.K. Divayev, S.T. Maripova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'tgan yillarda Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida nodir metall ma'danlashuvi bo'yicha olib borilgan geologik tadqiqotlarda alohida e'tibor geodinamik rivojlanish sharoitlarini aniqlash, metallogenik rayonlashtirish, nodir metallarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari va moddiy tarkibini o'rganish, shuningdek, hududdagi turli plutonik va daykali hosilalarini hamda ularning turlarini tahlil qilish, intruziv jinslarning nodir metallarga ixtisoslashuv darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlar bir qator yangi ilmiy natijalarga olib keldi.

So'nggi yillarda erishilgan yutuqlarga qaramay, hali ham yechimini topmagan bir qator masalalar mavjud. Jumladan, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay konlari va namoyonlarining joylashuvi hamda hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish, shuningdek, qalayning mineral xomashyo bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarur. Bu borada qalay ma'danlashuvining bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish va nazorat omillarini aniqlash orqali yangi istiqbolli maydonlarni ajratish mazkur muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Mineral resurslar instituti" Davlat muassasasi ilmiy-tadqiqot rejasining 1317-son "Ma'danli foydali qazilmalar uchun geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi va iqtisodiy natijadorligini tahlil qilish" (2019-2021) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududida qalay-nodir metall ma'danlashuvini bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish va qalayga istiqbolli maydonlar ajratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududining geologik tuzilishi, rivojlanish tarixi va ma'dandorligini tahlil qilish;

qalay-nodir metalli ma'danlashuvning joylashuv qonuniyatlarini statistik metallogenik tahlil qilish va joylashuv omillarini aniqlash;

qalay-nodir metalli ma'danlashuvning bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish va istiqbolli maydonlarni ajratish.

Tadqiqotning obykti sifatida Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududidagi qalay ma'danlashuvini nazorat qiluvchi omillar va joylashuv qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda an'anaviy usullar, jumladan dala kuzatuv majmuasi (konlardan namuna olish, geologik ma'lumotlarni hujjatlashtirish va boshqalar), formatsion tahlil, statistik metallogenik va analitik tahlillar, kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay ma'danlashuvining nodir va kamyob metallarga ixtisoslashgan Quljuq-Chaqilkalon terreynining kollizion granitoid magmatizmi bilan bog'liqligi asoslangan;

hududdagi qalay konlarining formatsion va genetik turlarini qamrab oluvchi tog' jinslari (ohaktoshlar, slaneslar, granitoidlar va daykali hosilalar) ta'siri aniqlangan;

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay ma'danlashuvining 6 ta asosiy qulay geologik-strukturaviy pozitsiyalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida turli geologik masalalarni yechishga qaratilgan Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay obyektlarining geologik-strukturaviy, geologik-geokimyoviy, mineralogik, geologik-iqtisodiy va boshqa ma'lumotlarini qamrab olgan raqamli ma'lumotlar bazasi yaratilgan;

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududidagi qalay ma'danlashuvining mintaqaviy va mahalliy bashorat-qidiruv mezonlari ishlab chiqilgan;

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining qalayga istiqbolli maydonlar xaritasi tuzilgan va geologiya-qidiruv ishlarini birinchi navbatda olib borish uchun 5 ta istiqbolli maydon tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi "O'zdavstandart" agentligida attestatsiyadan o'tgan laboratoriya tahlillari (spektral, ICP MS) shuningdek, litsenziyalangan dasturiy ta'minotlardan foydalangan holda, aprotatsiyadan o'tgan metallogenik tahlil usullaridan foydalanilganligi, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududidagi 132 ta qalay ma'danli obyektlarning ma'lumotlar bazasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 12.03.2024-yildagi № BGU 1354-son bilan berilgan mualliflik guvohnomasining mavjudligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududida qalay ma'danlashuvining joylashuv qonuniyatlari va nazorat qiluvchi omillari, bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish hamda qalay ma'danlashuvining istiqbollari aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qalayga istiqbolli maydonlar ajratilganligi va ularda geologiya-qidiruv ishlari olib borish bo'yicha tavsiyalar berilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududida qalay ma'danlashuvini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'danli hududidagi endogen qalay ma'danlashuvining katalogi, ma'lumotlar bazasi va xaritasi "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining

2025-yil 4-fevraldagi 08-0516-son ma'lumotnomasi). Natijada geologiya-qidiruv ishlarini zamonaviy dasturiy ta'minotlar yordamida tahlil qilish imkonini bergan;

hududda qalay obyektlarining joylashuvi va hosil bo'lish qonuniyatlari bo'yicha xulosalar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 08-0516-son ma'lumotnomasi). Natijada qalayga istiqbolli maydonlarni bashorat qilish imkonini bergan;

ajratilgan Shimoliy Ziyovuddin, Janubiy Ziyovuddin, Tim, Qo'chqorli va Qutchi istiqbolli maydonlari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 08-0516-son ma'lumotnomasi). Natijada qalay-nodir metallar xomashyo bazasini kengaytirish hamda geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan, respublika nashrlarida 5 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 bet, 10 ta jadval, 30 ta rasmdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larini geologik tuzilishining o'ziga xosligi"** deb nomlangan birinchi bobida jahon qalay mineral xomashyo bazasining hozirgi holati, geologik o'rganilish tarixi, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining geologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan.

Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 4,9 million tonna qalay zaxiralarini qazib olish iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Ushbu zaxiralarning 83% 7 ta davlat - Xitoy (1,100 ming tonna), Indoneziya (800 ming tonna), Myanma (700 ming tonna), Avstraliya (560 ming tonna), Braziliya (420 ming tonna), Boliviya (400 ming tonna), Rossiya (200 ming tonna) va boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qalay ko'plab mamlakatlarning kritik metallar ro'yxatiga kiritilgan. Rossiyaning strategik mineral xomashyosi ro'yxatiga 61 turdagi foydali qazilmalar, jumladan, qalay ham kiritilgan. Shuningdek, qalay Yevropa Ittifoqi va AQSh ning

muhim foydali qazilmalar ro'yxatiga ham kiritilgan. Jahonda qalaydan foydalanish sohalari tobora kengayib borayotgani sababli, kelgusida uning jahon bozoridagi talabining yanada ortishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududi bo'yicha olingan yangi geologik ma'lumotlar mamlakatimizning qalayga bo'lgan potensial istiqbolini qayta ko'rib chiqish orqali milliy qalay mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratishi mumkin. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining geologik tuzilishida paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlariga oid hosilalar ishtirok etadi. Endogen qalay obyektlari joylashgan Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining paleozoy poydevori cho'kindi-metamorfik hosilalardan tashkil topgan bo'lib, ular granitoid intruzivlar bilan yorib o'tilgan (1-rasm).



1-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining intruziv massivlari va asosiy strukturaviy elementlarining joylashuv sxemasi (R.X. Mirkamalov, F.K. Divayev, Y.B. Yejkov, V.S. Korsakov va boshqalar materiallari asosida). Svita: 1 – qarnob (krn), 2 – sukaytin (sk), 3 – sappen (S₁ (?) sp), 4 – timsoy (S₁ tm), 5 – tepalik, 6 – rabindjon (D₁₋₃ rb), 7 – qizbibi (D₁₋₂ kb) va jilandi (D₁ dž), 8 – jalqiraymaxal va mayzak, 9 – piyazin, 10 – terikbabi, kattajar, yarmanchi va daraitut, 11 – oltioyul, 12 – bulyamush (O-S (?) bl), 13 – suyaltosh. Magmatik komplekslar: 14 – Qoratepa-Zirabuloq, 15 – Ketmonchi, 16 – Zirabuloq-Ziyovuddin, 17 – Katarmay svitasi; 18 – birinchi tartibli yer yoriqlar; 19 – ikkinchi tartibli yer yoriqlar; 20 – qalay ma'dan namoyondalari (kon, ma'dan namoyonlar, ma'dan nuqtalar); 21 – volfram koni.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining mezozoygacha bo'lgan stratigrafik hosilalari quyidagilardan iborat.

Hududda kembriy davriga mansub ikkita svitada ajratilgan – yagnob svitasi (Є-S jag) va katarmay svitasi (Є-S kt). Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan katarmay svitasini 4 ta kichik svitaga ajratilishi asosli deb hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar katarmay svitasini Ziyovuddin tog'larining oltin mineralashuvining asosiy litologik omili sifatida ko'rib kelmoqda.

Ordovik-silur davrini (O-S) quyidagi svitalar tashkil qiladi: bulyamush svitasi (O-S (?) bl), oltioul svitasi (O₂₋₃ al), yarmanchin svitasi (O₃-S₁ jar), daraitut svitasi (O₃-S₁l dr), katadjar svitasi (S₁v1 kt), ovxanin svitasi (S₁v1 ov), terikbabin svitasi (S₁v₂ tr), piyazin (S₂ ld-p pz) svitalari.

Devon davri (D) asosiy tarkibi karbonat tog' jinslari bo'lgan 6 ta svitaga bo'linadi: jalqiraymaxal svitasi (D₁l-p džk), mayzak svitasi (D₁p-e mz); jilandi svitasi ýß D₁₋₂ dž, rabindjon svitasi (D₁₋₃ rb), qozonbuloq svitasi (D₂žv kz), ayribel svitasi (D₃f ar).

Karbon davriga (C) 3 ta svita kiradi: timsay svitasi (C₁ tm), sappen (C₁₋₂ sp) va tepalik (C₂₋₃ tp) svitalari. Hududning paleozoy poydevori asosan terrigen va karbonat tog' jinslari yotqiziqlaridan tashkil topgan.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari magmatizmi asosan kollizion granitoid magmatizmiga mansub. Magmatik jismlarning asosiy qismi kaliy-natriy granitoidlardan (o'rtacha nordon, nordon) va o'rta tarkibli effuzivlardan iborat. Granodiorit-adamellit-granit jinslari taxminan 370 km² ni tashkil etadi, bu Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining paleozoy hosilalarining rivojlanish maydonining 34,2% ni tashkil qiladi.

Barcha intruziv jismlar hududdagi umumiy burmali strukturalar doirasida hosil bo'lgan bo'lib, ularning uzun o'qlari kenglik va shimoli-g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan. Intruziv jismlarning shakli ko'p jihatdan burmali strukturalar shaklini takrorlayd.

Vulkanogen hosilalar Ziyovuddin tog'larining shimoliy qismini va Zirabuloq tog'larining shimoli-sharqiy chekkasini qamrab oladi. Vulqon tog' jinslari oltiovu (andezitlar, datsitlar, riolitlar va ularning tuflari, ordovik yoshi) katarmay, jilandi svitalarida (ankaramit-bazalt kompleksi, D₁? yosh) uchraydi.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari hududida daykalar keng tarqalgan. Ular bir nechta daykali hududlarga mansub bo'lib, tarkibiga bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: 1-aplitlar va pegmatitlar C₃, 2-kersantitlar va spessartitlar D₂₋₃, 3-granodiorit-porfirilar D₂₋₃, 4-kvarsli dioritlar va siyenito-dioritlar D₂₋₃, 5-kersantitlar va spessartitlar C₃, 6-olivinli porfirritlar, 7-granit-porfirilar, dioritli porfirritlar, 8-kvarsli tomirlar va tomirchalar. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida daykalar yo'nalishlari va zichligiga ko'ra farq qiladi. Daykalarning turi va yo'nalishlar bo'yicha tarqalish zichligining raqamli xaritasi tayyorlangan. Kersantit va spessartit daykalari asosan kenglik va subkenglik yo'nalishda Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining shimoliy qismida zich holda uchraydi. Meridional, submeridional va shimoli-g'arbiy yo'nalishda esa markaziy qismida tarqalgan. Aplit va pegmatit daykalari subkenglik yo'nalishda asosan Ziyovuddin tog'larida, meridional, submeridional va shimoli-g'arbiy yo'nalishda Zirabuloq tog'larida ko'proq kuzatiladi.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari tektonik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi chiziqsimon burmalardan iborat. Ushbu burmalar turli yo'nalishdagi uzilmali strukturalar bilan murakkablashgan bo'lib, bu siljish strukturalariga blokli xususiyat beradi.


Zamonaviy geodinamik talqinga ko'ra Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududi tektonik jihatidan individual geodinamik rivojlanish xususiyatiga ega

bo'lgan ikkita terreynga mansub: Zarafshon terreyini (geodinamik sharoiti - rivojlanishning okean bosqichi) va Quljuq-Chaqilkalon terreyini (geodinamik sharoiti - kontinental shelf). Asosan oltin ma'danlashuviga ixtisoslashgan va geodinamik sharoiti - rivojlanishning okean bosqichi bo'lgan. Zarafshon terreyini Ziyovuddin tog'larining sharqiy qismida va Zirabuloq tog'larining shimoliy chetlarida kuzatiladi. Nodir metallarga ixtisoslashgan va geodinamik rivojlanish sharoiti kontinental shelf bo'lgan. Quljuq-Chaqilkalon terreyiniga Ziyovuddin tog'larining g'arbiy qismi va Zirabuloq tog'larining asosiy qismi kiradi. Ikki terreyinni ajratib turuvchi geologik struktura – bu sappen mikstit zonasi. Ilgari ushbu zona Sappe-Qutchi yoki (Zarafshon yer yorig'i) nomi bilan atalgan.

Dissertatsiyaning “**Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining etalon qalay va volfram konlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi nodir metallar – qalay va volframning etalon konlari o'rganilgan. Hozirgi kunda mazkur hududda 132 dan ortiq qalay va 200 dan ortiq volframga oid endogen obyektlar (konlar, ma'dan namoyonlari va ma'dan nuqtalari) aniqlangan. Shuningdek, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida qalayning 1000 yil avval qazib olingani haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay ma'dan obyektlari murakkab morfologiyaga ega. O'zbekiston qalay mineral xomashyo bazasining hozirgi holati qalay zaxiralari davlat balansi ma'lumotlariga ko'ra, bir nechta kichik konlardan iborat. Bular: Lapas, Semizquduq, Qarnob va Changalli. Qalay Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida ham poliformatsion (Qarnob, Lapas va boshqa), hamda monoformatsion (Qo'chqorli) konlarni hosil qiladi.

Qarnob qalay koni yirik antiklinal burmaning yadrosini yorib o'tuvchi C_3-P_1 biotitli granitlar intruzivining janubi-g'arbiy endokontaktiga to'g'ri keladi, uning qanotlarida marmarlashgan devon davri ohaktoshlari hamda ordovik davrining terrigen jinslari kuzatiladi (2-rasm).



Qalay ma'dan tanalarini qamrab oluvchi tog' jinslarining qalinligi 500 metrdan ortiq bo'lib, ular fillitsimon slaneslar, kvarsli alevrolitlar va gravelitlar, kremniyli jinslar, gilli ohaktoshlar va andezidatsit tuflari (oltiovul svitasi) qatlamli qumtoshlardan iborat. Ma'danlashuvni o'z ichiga olgan Qarnob intruzivi


C_3 - P_1 granitoid kompleksidan iborat. Intruzivning burmali struktura bilan kontaktlari kesuvchi. Shimoliy kontakti tik, janubiy kontakti esa ancha qiya, Qarnob-Lapas yer yorig'ining bir qator uzilishlari bilan murakkablashgan.

Ekzokontakt zonasida leykokratli granitlar, applitlar, kam hollarda pegmatitlarning daykalari va shtoksimon tanalari keng tarqalgan. Konlarda granitoiddan keyingi daykalar keng rivojlangan. Ma'dan atrofidagi o'zgarishlarning asosiy turi berezitlashish. Ma'dan tanalari 2 ta morfologik turga ajratilgan: tomirtomirchalar va shtokverkli minerallashtirilgan zonalar.

Kassiterit mayda-mayda xol-xol, ingichka tomirchalar, alohida donalar ko'rinishida aniqlangan. Ma'dan tanalari tarkibidagi: kassiterit – 0,3-0,5%, galenit – 0,3-0,5%, sfalerit – 0,1-0,3%, xalkopirit – 0,1-0,3%, pirit – 1-2%. Ma'dan tanalari tarkibida qalay – 0,3-0,4%, qo'rg'oshin – 0,3%, mis – 0,1-0,2%, rux – 0,1%, kumush – 72 g/t, margimush – 0,1%, surma – 0,1%. Ma'danlashuvning vertikal qamrovi 500 m dan oshadi.

Konning asosiy ma'dan nazorat qiluvchi omillari: 1) yirik, bo'ylama yoriqlar; 2) ularning diagonal va gorizontaal siljishlar bilan kesishuvi; 3) granitoid intruzivning endokontakti; 4) P_2 - T_1 monsonitoid kompleksining daykali belbog'lari, dastalari; 5) oreollar va berezitlashish zonalar; 6) qalay, qo'rg'oshin, mis, rux, margimush, kumushning geokimyoviy oreollari hisoblanadi.

Lapas qalay koni Zirabuloq tog'larining g'arbiy qismida, Chiroqjuri intruzivining janubiy ekzokontakti zonasidagi O_{2-3} - D_2 davrga mansub karbonat-terrigen yotqiziqlarida joylashgan (3-rasm).



3-rasm. Lapas konining sxematik geologik xaritasi. 1 – lamprofirlar; 2 – ohaktosh (S_2 - D_2); 3 – slaneslar, alevrolitlar, qumtoshlar (O_{2-3} - S_1); 4 – yer yoriqlar; 5 – surilma; 6 – kvars tomirlarining rivojlanish uchastkalari; 7 – shtolnyaning og'zi; 8 – shaxta; 9 – qadimgi tog' qazilmalari.

Karbonatli tog' jinslar maydonning shimoliy va janubiy chegarasida aniqlangan; markaziy qismi va sharqiy qismining yoni esa terrigen tog' jinslaridan tashkil topgan.

Kon Qarnob-Lapas yer yorig'iga tutashgan yuqori darzlikning shimoli-g'arbiy zonasiga to'g'ri keladi. Ushbu strukturalarning birlashmasida Markaziy uchastka, 1,5 km shimoli-g'arbda G'arbiy uchastka joylashgan. Zona maydalanish, limonitlashish, ma'dan oldi metasomatik dolomitlashish, kvars-seritsit-karbonatli metasomatitlarning linzasimon tanalari va qalinligi 1-2 m va uzunligi 150 m gacha bo'lgan ma'danli kvars tomirlari bilan kuzatiladi. Strukturaviy jihatdan Markaziy

uchastka turli yoʻnalishdagi: subkenglik – Qarnob-Lapas; shimoli-gʻarbiy Chuyun-Lapas yoriqlarining kesishish tuguniga tegishli.

Qalay minerallashuvining uch asosiy bosqichi aniqlangan: 1) Markaziy va Gʻarbiy uchastkalarining greyzenlashgan leykokratli granitlarida yuqori haroratli bosqich; 2) kvars-seritsit-karbonatli metasomatitlar va dolomitlashgan ohaktoshlarda oʻrta haroratli bosqich; 3) Gʻarbiy uchastkaning dolomitlashgan maydalangan ohaktoshlarida past haroratli bosqich. Maʼdanlarning moddiy tarkibi ularni oʻrab turgan muhitning tarkibiga qarab oʻzgaradi.


Semizquduq konida bu kvars, turmalin, seritsit va albit boʻlsa, Lapas konida kvars, seritsit, karbonat va xloritdan iborat. Maʼdan minerallarining tarkibi alohida maydonlarda sifat jihatidan bir xil boʻlib, ular kassiterit, pirit, xalkopirit, galenit, arsenopirit, sfalerit va argentitdan iborat, ammo miqdoriy jihatdan sezilarli farq qiladi (Lapas konida sulfidlar keskin ustunlik qiladi).

Maʼdanlar tarkibida qalay (0,2-0,5 dan 3,9% gacha), mis, qoʻrgʻoshin (0,1-0,8%), kumush (20-50 g/t) aniqlangan. Qalaydan tashqari, kumush ham foydali komponent boʻlib xizmat qilishi mumkin. Maʼdanlashuvning vertikal qamrovi 400 m dan ortiq.

Semizquduq koni Lapas konidan 4 km shimoli-gʻarbda, oltiovul svitasi terrigen yotqiziqlarining rivojlanish zonasida joylashgan boʻlib, uzunligi 5 km, kengligi 0,5 km boʻlgan maʼdanli zona bilan ifodalanadi. Bu yerda uzunligi 30-150 m, kengligi 0,5-2 m, chuqurligi 15-20 m boʻlgan 20 dan ortiq qadimiy togʻlahmlar aniqlangan.

Semizquduq va Lapas konlarida qalay minerallashuvining asosiy minerallari deyarli bir xil: kassiterit, pirit, arsenopirit bilan kichik anomalialar bilan tavsiflanadi. Maʼdanlarning moddiy tarkibiga koʻra, Semizquduq koni kassiterit-turmalin-kassiteritli mineral turiga, Lapas koni esa kvars-kassiterit-piritli mineral turiga mansub. Ikki obyekt ham morfologik xossalari boʻyicha tomirli metasomatik turga, hosil boʻlish sharoitlari boʻyicha gidrotermal-metasomatik turga kiradi.

Qoʻchqorli qalay koni Zirabuloq-Ziyovuddin togʻlarining shimoli-sharqiy qismida joylashgan boʻlib, choʻkindi-metamorfik silur davri jinslaridan tashkil topgan va lamprofir daykalari bilan yorib oʻtilgan (4-rasm).



4-rasm. Qoʻchqorli konining sxematik geologik xaritasi. 1 – kremniyli talk-xloritli gilli slaneslar (yuqori ludlou); 2 – marmarlashgan ohaktoshlar (yuqori ludlou); 3 – oʻzgargan lamprofirlar; 4 – dolomit va ohaktoshlar; 5 – dolomit-kassiterit mine-rallashuvi; 6 – tektonik buzilishlar.

Choʻkindi-metamorfik jinslar kulrang qatlamli ohaktoshlar, kremniyli va talk-xloritli slaneslar, qora bitumli va och kulrang massiv ohaktoshlardan iborat. Burmalar kenglikka yaqin yoʻnalishda tarqalgan. Togʻ jinslari asosan janubiy va janubiy-sharqiy yoʻnalishda kuzatiladi. Yoriqli buzilishlar togʻ jinslarning

kontaktlari bo‘ylab rivojlangan. Ma‘danlashuv asosan och kulrang massiv ohaktoshlarda, shimoli-sharqiy va submeridional yo‘nalishdagi yer yoriqlar zonalarida joylashgan.

Karbonat-kassiteritli ma‘danlashuvga ega bo‘lgan lamprofirlar daykalari mavjud. Lamprofirlarda seritsitlashish, kvarslashish va karbonatlashish, ohaktoshlarda dolomitlashish, ankeritlashish va kalsitlashish, bu yerda zonalar va tomirlardan tashqari metasomatitlar va qalay ma‘danlashuvi shtoksimon jismlarni hosil qiladi. Dolomitlashuv va ankeritlashuv zonalarining markazida ba‘zan kvarsning kichik namoyonlari rivojlanadi, ular qalay minerallashuvidan kechroq shakllanish vaqti bo‘yicha kuchsiz sulfidlanish bilan birga kelgan. Dolomitlashgan ohaktoshlarning alohida uchastkalarida va daykalarning atrofida ohaktoshlarda yaxlit kassiterit uyalari uchraydi.

Konning shakllanishi mineral hosil bo‘lishining uch bosqichi bilan belgilanadi: erta metasomatik karbonatli, daykalar doirasida seritsitli; o‘rta kassiterit-karbonatli; kechki tomir-karbonatli. Ma‘danlar tarkibida kalsit, dolomit, ankerit, brusit, seritsit, xlorit, flyuorit, barit, kassiterit, pirit, arsenopirit, oltin va boshqalar qayd etilgan.


Kassiteritning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ohaktoshlardagi dolomit, ankerit va kalsit bilan, lamprofirlar daykalaridagi seritsit va karbonatlar bilan bir assotsiatsiyadalihi hisoblanadi.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘laridagi volfram ma‘danlashuvining skarn sanoat turi rivojlangan. Ingichka volfram koni Zirabuloq tog‘larining janubi-sharqiy qismida Zirabuloq intruzivining terrigen-karbonat hosilalari bilan sharqiy kontaktida joylashgan. Ludlov yarusiga mansub ushbu xosilalar umumiy qalinligi 650-700 m bo‘lgan dolomitlar, dolomit ohaktoshlari va ohaktosh linzalaridan iborat. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida volfram ma‘danlashuvining o‘ziga xos xususiyati qalay ma‘danli namoyonlar bilan chambarchas bog‘liqligidir.

Dissertatsiyaning **“Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining qalay ma‘danlashuvi metallogenik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida qalay ma‘danlashuvining joylashish va hosil bo‘lish qonuniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Turli mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘p yillar davomida Tyan-Shan burmali kamarida qalay minerallashuvini o‘rganish natijasida Xitoydan Qirg‘iziston, Tojikiston orqali O‘zbekistongacha cho‘zilgan Markaziy Osiyoning yirik qalay ma‘danli provinsiyasi aniqlangan. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari bu provinsiyaning g‘arbiy qismida joylashgan.


Joylashuv qonuniyatlarini tahlil qilish va bashorat-qidiruv mezonlarini ishlab chiqish uchun Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘laridagi yaratilgan endogen qalay ma‘danli obyektlarning ma‘lumotlar bazasidan va turli geologik mazmundagi raqamli xaritalardan foydalanildi. Qalay ma‘danlashuvining geologik fazoviy bog‘lanish koeffitsiyenti (d) yordamida statistik taxlillari natijasida Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘laridagi qalay ma‘danlashuvining joylashuviga ta‘sir etuvchi asosiy magmatik ($d=0.9$), litologik-stratigrafik ($d=0.8$), geologik-strukturaviy ($d=0.87$) omillar ekanligi aniqlandi.

A. Qalay obyektlarini qamrab oluvchi tog'-jinslarining tarkibi



1 – terrigen (qumtosh-slanes) jinslar; 2 – intruziv jinslar; 3 – intruziv va karbonat jinslarning tutashgan joyi; 4 – karbonat va terrigen jinslarning tutashgan joyi; 5 – intruziv va terrigen jinslarning tutashgan joyi; 6 – karbonat jinslar.

V. Ma'danli zonalarning strukturaviy-morfologik turi



1 – tomirlarning chiziqli zonalari; 2 – metasomatitlar (yoriqlar zonasidagi brekchiyalar); 3 – tik joylashgan tomirlar, daykalar; 4 – kontakt zonalari; 5 – uyalar, linzalar; 6 – shtokverklar.

5-rasm. Qalay ma'danlashuvining turli geologik belgilar bo'yicha tarqalish diagrammalari.


Qalay obyektlarini qamrab oluvchi tog' jinslari tarkibi quyidagicha taqsimlangan (5-rasm, A): terrigen tog' jinslari 28,8%; intruziv jinslar 23,5%; intruziv va karbonat jinslari 18,9%; karbonat va terrigen jinslar aralashmasi 18,2%; intruziv va terrigen jinslar aralashmasi 6,8% hamda karbonat jinslar 3,8% ni tashkil etadi. Umuman olganda, karbonat tog' jinslari qalay ma'danlashuvini qamrab oluvchi muhit sifatida 40,9% (18,9+18,2+3,8) ulushga ega bo'lib, bu ularning qalay ma'danlashuvidagi ahamiyatini asoslaydi.

Qalay ma'dan tanalarining mineral tarkibi (5-rasm, B): kvars 57,6%; skarnlar (ohaktosh-magnezial) 17,4%; kvars-turmalin-slyudali 16,7%; kvars-karbonat 4,5%; pegmatit 3,8% ni tashkil etadi.

Ma'dan zonalarning strukturaviy-morfologik turlari (5-rasm, V): tomirlarning chiziqli zonalari 31,8%; metasomatitlar (yoriqlar zonasidagi brekchiyalar) 26,5%; tik joylashgan tomirlar va daykalar 18,2%; kontakt zonalari 15,3%; uyalar va linzalar 6,0%; shtokverklar 2,2%.


Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-ma'dan hududidagi qalay obyektlari ma'danlashuvi 4ta genetik turga ajratildi (5-rasm, G): gidrotermal 58,4%; greyzenli 18,9%; skarnli 18,2%; pegmatitli 4,5%. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi qalay

B. Ma'dan tanalarining mineral tarkibi



1 – kvars; 2 – skarnlar (ohaktosh-magnezial); 3 – kvars-turmalin-slyudali; 4 – kvars-karbonat; 5 – pegmatit







G. Genetik tur



1 – gidrotermal; 2 – greyzenli; 3 – skarnli; 4 – pegmatitli.

konlarining genetik turlari (shakllanish sharoitlari) yuqori paleozoyning orogen jarayonlari va granitoidli intruziv magmatizmi bilan bog'liqligi tasdiqlandi.

Strukturaviy omillar qalay ma'danlashuvining joylashuvini nazorat qilishda yetakchi rol o'ynagan. Barcha qalay obyektlarini geologik pozitsiyalari turli yo'nalishdagi yer yoriqlarning kesishgan yoki tutashgan joylariga mansub. Qalayga ma'dandor asosiy pozitsiya sifatida intruzivlar bilan murakkablashgan antiklinal burmaning o'q oldi qismida ezilish zonasi bilan bog'liq bo'lgan turli yo'nalishdagi yoriqlarning ko'p sonli kesishish joylari ekanligi aniqlandi. Ushbu pozitsiyada Qarnob, Lapas, Semizquduq konlari, yirik ma'dan namoyonlari va ko'plab ma'dan nuqtalari joylashgan (6-rasm).

T/r	Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari qalay ma'danlashuvining geologik-strukturaviy pozitsiyalari	Qalay obyektlari geologik-strukturaviy joylashuv sharoiti sxemasi	Misollar		
			K	M-1	M-2
1	Kontrast cho'kindi tog' jinslari kontaktlarida, ba'zan intruzivlarning ekzokontakt zonalarida (1000 m gacha) subkenglik (G'-Shg') yoriqlarining Sh-Shq, Sh-G' va submeridional yer yoriqlar bilan kesishish tugunlarida		-	Sukayti, Changalli, Qo'chqorli 117	36
2	Bir hil geologik muhitda 1000 m gacha bo'lgan masofada bir-biriga yaqin bo'lgan subparallel, subkenglik yo'nalishdagi (G'-Shg') yoki Sh-Shq va submeridional yer yoriqlardan hosil bo'lgan bloklarda		-	-	15 67 68
3	Intruziv massivlarning endo-ekzokontakt zonalarida (+1000 m) subkenglik (G'-Shg') yo'nalishdagi yer yoriqlarining Sh-Shq yoki Sh-g' yoriqlari bilan kesishish tugunlarida		-	- 45	34 26 44 57 78 83 40 97
4	Intruzivlarning ekdo-ekzo kontakt zonalarida (+1000), turli yo'nalishdagi subkenglik yoriqlarni (Sh-G' va Sh-Shq) kesishishgan joylarida hosil bo'lgan bloklarda		Karmana	1 5	74 130 29 32
5	Intruzivlarning ekdo-ekzo kontakt zonalarining (+1000 m) bir hil litologik muhitda turli yo'nalishdagi subkenglik, Sh-G' va Sh-Shq yer yoriqlardan hosil bo'lgan bloklarda		-	-	94 112 23 24 28 109 120 68
6	Antiklinal burmalarning o'q oldi qismida (0-1000 m) ezilish zonasi bilan tutashgan yakka yoki yaqin subparallel Sh-Shq, Sh-G' submeridional yer yoriqlar bilan kesishish tugunlarida (ko'pincha intruzivlarning endo-ekzokontakt zonalarida (+1000 m) kuzatiladi)		Qarnob Lapas, Semizquduq	10 17 96	88 105 106 75 77 26 123



6-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin hududi qalay obyektlarining asosiy geologik-strukturaviy pozitsiyalari sxemasi. 1 – II - tartibli yoriqlar; 2 – ezilish zonasi; 3 – II - tartibli antiklinal burmalar; 4 – intruziv massivlar; 5 – qumslanes tog' jinslari; 6 – karbonat tog' jinslari; 7 – qalay obyektlari: K – konlar, M-1 – ma'dan namoyondalari, M-2 – ma'dan nuqtalar.

Dissertatsiyaning **“Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida qalay konlarini bashorat-qidiruv mezonlari hamda istiqbolli maydonlar ajratish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining qalay ma‘danlashuvining joylashuv omillarini aniqlash va bashorat-qidiruv me‘zonlarini yaratishdan iborat.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari tektonikasi bo‘yicha raqamli geofizik materiallar bazasini tahlili va eksperimental optik modellashtirish natijalari mintaqaviy gorizontal siqilish natijasida yer qobig‘ining zaiflashgan joylarini aniqlash imkonini berdi. Yer qobig‘ining yashirin ko‘ndalang yoriqlarining subkenglik mintaqaviy yer yoriqlar bilan kesishishi va tutashishi Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining mozaik-blokli tuzilishini belgilaydi. Strukturaviy-tektonik bloklar turli tektonofizik holat, yo‘nalish, deformatsiya, intensivlik, magmatik xosilalarning tarkibi va yoshi, solishtirma darzlanish va ma‘dan bilan to‘yinganlik, metallogenik va geokimyoviy ixtisoslashuvi, geofizik anomal maydonlar bilan tavsiflanadi.

Yo‘nalishlar bo‘yicha yer yoriqlari zichligida quyidagi ketma-ketlik aniqlandi: shimoli-sharqiy, submeridional va shimoli-g‘arbiy.

